

INGLIZ TILINI O'RGANISHDA SO'Z BOYLI GI (VOCABULARY) NI OSHIRISH UCHUN O'YINLARNING AHAMIYATI

Murodkulova Ruxshona Aminjonovna

Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili-1 fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Ilmiy raxbar: Nafisa Axmatilloevna Ibadova

Annotatsiya: Mamlakatimizda mustaqillikka erishgandan keyin , xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan imkoniyatlar kengaydi. Ko'plab xorijiy davlatlar va elchixonalar bilan diplomatik aloqalar o'rantildi. Ushbu maqolada xorijiy til yangi ingliz tilini o'rganishda so'z boyligi(vocabulary)ni oshirishda, o'yinlar va interactive metodlardan qay darajada faydalanish haqida ma'lumotlar berildi.

Ka'lit so'zlar: chet tili, interactive metodlar, o'yin turlari, ESL o'yinlari.

Xorijiy tillarni ya'ni ingliz bilish bugungi davr talabi bo'lganligi bois, tillarni nafaqat oliy ta'lim muassasalarida, maktablarda, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida ham o'rgatilmoqda va til o'qitish markazlarida o'ragtilmoqda. Darslarni o'ziga xos usullar, qiziqarli metodlar bilan o'tilmasa, o'quvchilarni darsga jalb qilish biroz murakkab vazifaga aylanishi mumkin. Agarda darslarda an'anaviy usullardan ko'ra ko'proq interactive metodlardan yoki o'yin texnologiyalaridan qo'llanilsa , dars mashg'ulotlari qiziqarli bo'lib, nafaqat dars sifatini ta'minlaydi, shu bilan birga zerikishni oldini olib, o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilarni ham darsda faol ishtirok etishga jalb qiladi.

Xo'sh aslida interaktiv metodning o'zi hozirgi kunda qanday ma'no anglatadi? Interaktiv (inglizcha INTERACTION anglatadi) metodlarbu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni yuqo rida aytib o'tganimizdek, bir paytning o'zida ham pedagog ham o'quvchining bi rdek faoliyati tushuniladi. Uning asosiy mazmuni ham, tarkibi ham shundan iboratdir. Interaktiv metodlar o'zining quyidagi asosiy tushunchalar o'z ichiga oldi:1. Interfaol metodlar o'qituvchi va o'quvchining faol munosabati, 2. Interfaol metodlarning maqsadi bo'lmasin, o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro ham fikrligini ta'minlash. 3. Ushbu metodlar orqali o'quvchi qabul qilishni rivojlantirish, o'quvchilarni kel olishini ta'minlash kabilarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. [1;75].

Tennis o'yini - bu o'yinning maqsadi o'quvchilarning tezligini oshirishdir. Bu o'yin zanjir o'yiniga o'xshaydi va tanlangan mavzu doirasida bo'lib o'tadi. Bunda aytilgan so'zning so'nggi harfiga yangi so'z aytishi kerak, masalan mavzu nomi „Animals” bo'lsa, mavzudan chetlashmagan holda „Tiger” so'zi bilan boshlansa, ikkinchi ishtirokchi „rabbit”deb davom ettiradi. Shu tariqa o'yin davom etadi. O'yin davomida to'xtab qolgan o'quvchi 5 daqiqa davomida javob bera olmasa o'yindan

chetlashtiriladi va qolgan o'quvchilar bilan davom ettiriladi. O'yinni sinf bilan ya'ni ko'pchilik bilan o'ynash juda qiziqarli va maroqli bo'ladi. Bu o'yinni mavzuni o'zgartirish orqali ham o'ynash mumkin. Shu bilan birga, o'yinlarni tashkil etish jarayonida, ularni turli texnik vositalar bilan bog'lab o'tish ham qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Chunki bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan zamonda barcha yoshlar, o'smirlar va kattalar ham zamonaviy texnologiyalarga befarq emas. Shunday ekan, qiziqarli fan o'yinlari kompyuterlarda tashkil qilinishi orqali samarali natijaga erishish mumkin [2;28].

Tic tac toe- bu juda qiziqarli va oson o'yin bo'lib til o'rganishda foydalanilsa juda samaralidir. Bu o'yin grammatik mavzularni takrorlash, noto'g'ri(regular),no'to'g'ri(irregular) fe'llarni yoki hayvon va meva sabzavotlar,zamonlar mavzusini takrorlashda foydalansa juda ham muhimdir. O'yin o'ynash uchun o'quvchilar 1 tadan 4 tagacha bo'lgan ikkita guruh shakllanadi.Bunda birinchi gurux (x),ikkinchi guruh(y) shaklida bo'ladi. O'yin quydagicha boshlanadi. Sinf doskasiga jadval chiziladi. To'g'ri va no'to'g'ri fe'llar jadvali. Birinchi guruh to'g'ri fe'llarni,ikkinchi guruh esa shu fe'llarni o'tgan zamon shaklini yozadi (irregular) past particple shaklini yozadi. Mashg'ulotni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.Eng ko'p va grammatik jihatdan to'g'ri yozgan guruh g'o'lib bo'ladi va rag'bat kartochkasi bilan taqdirlanadi.

So'z boyligingizni yaxshilash o'zingizga bo'lgan ishonchni oshirishi va professional muhitda muloqot qilish uslubingizni yaxshilashga yordam beradi. So'z boyligingiz ustida ishlashda ko'p narsalarni, jumladan, yangi so'zlarni o'rganishni qiziqarli qiladigan onlayn vositalarni hisobga olish kerak. So'z boyligingizni yaxshilashga yordam beradigan eng yaxshi ilovani tanlash uchun maqsadingizga erishishga yordam beradigan mavjud raqamli vositalarni ko'rib chiqish muhimdir. Bugungi kunda biz XXI asr texnologiyalari asrida yashayapmiz. Bugungi kunda biz internet resurslari va ulardan foydalanish haqida ko'p tushunchalarga egamiz. Ushbu maqolada biz so'z boyligini yaxshilash uchun eng yaxshi mobil ilovalarni o'rganamiz va tilingizni kengaytirish bo'yicha qo'shimcha maslahatlar bilan o'rtoqlashamiz.[¹].

Exam Vocabulary Builder – yangi so'zlarni o'rgatish uchun flesh-kartaga o'xshash interfeysdan foydalanadigan lug'at ilovasi. Har safar yangi so'zni qidirganimizda yoki o'rganaganimizda, ilova sizga ushbu so'zni jumlada ishlatish misollarini ko'rsatadi. Exam Vocabulary Builder statistik funksiyaga ega bo'lib, u sizning natijalaringizni kuzatib borishga yordam beradi. Unda shuningdek, mumkin bo'lgan javoblardan biriga ta'rifni moslashtirishga undaydigan viktorina rejimi mavjud. Bu ona ingliz tilida so'zlashuvchilar uchun ham, ingliz tili imtihonlarini, shu jumladan TOEFL uchun tahsil olayotgan xalqaro talabalar uchun ajoyib dastur.

Ingliz tilini yaxshilang: lug'at. Ingliz tilini yaxshilang: Vocabulary ko'p maqsadli ilova bo'lib, u sizga interaktiv kurslar, kartalar va o'yinlar orqali ingliz tilidagi yangi so'zlarni o'rgatishga qaratilgan. Agar siz o'qish, yozish va grammatika kabi umumiy ingliz tili ko'nikmalingizni yaxshilashni istasangiz, bu ajoyib dastur. Ingliz tilini yaxshilang: Lug'at sizga yangi so'zlarni yaxshiroq yodlab olishga yordam berish uchun moslashtirilgan so'z boyligini tekshirish testlariga ham kirish imkonini beradi.

Lug'at yaratuvchisi

Magoosh tomonidan yaratilgan Vocabulary Builder - eng mashhur mobil lug'at o'yinlaridan biri. Unga osongina kirish mumkin va uni deyarli har qanday mobil qurilmaga yuklab olishingiz mumkin. Ilova mutaxassis repetitorlar tomonidan ilova uchun tanlangan 1200 ta Graduate Record Examination (GRE) so'zlarini o'rganish imkonini beradi. So'zlarni o'rganganingizdan so'ng, har bir so'zning talaffuzi, ularning ta'riflari va misol jumalari bo'yicha testlardan o'tib, har kuni o'zingizni tekshirishingiz mumkin. Vocabulary Builder dasturining asosiy, o'rta va yuqori darajadagi o'quv darajalarini bosib o'tish orqali yangi so'zlarni ochishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, qyasi tilda bo'lishidan qat'iy nazar ko'p lug'alar o'rganish, til o'rganuvchilarda osha til bo'yicha (ingliz, rus, nemis...) gapirish, yozish, o'qish ko'nikmlarini shakllantirishga yordam beradi. So'z boyligini oshirish uchun onlayn ilovalar, video darslarni ko'rish inglizcha badiiy asrlar(ertak, roman, hikoyalar o'qish ham foydalidir. Darslarda interfaol o'yinlar oraqli ham til o'rganilsa bollarda eslab qolish, faol bo'lish ko'nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601 Uzbekistan www.scientificprogress.uz Page 888 TIL O'QITISHDA O'YIN METODIDAN FOYDALANISH(75 -bet). Gulyora Olmos qizi Qodirova Farangiz Xudoyorova Samarqand davlat universiteti.
2. Muhamedov G'.I. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija. Xalq so'zi. xs.uz/uzkr/post/pedagogik-talim-innovatsion-klasteriehtiyozh-zarurat-natizha.
3. 12 best apps for improving vocabulary | Indeed.com UK <https://uk.indeed.com/career-advice/career-development/apps-for-improving-vocabulary>.
4. <https://eslgames.com/halloween-activities/>.
5. <https://eslgames.com/tic-tac-toe/>.